MAKTABGACHA TA’LIMDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK USULLARI

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL METHODS OF FORMING NATIONAL VALUES IN PRESCHOOL EDUCATION

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Usmonova Zulxumorxon Ikromjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Email: zulxumorusmonova07@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik -psixologik asoslari yoritilgan. Xususan, syujetli-rolli o‘yinlar hamda xalq ertaklaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Bolalarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy qadriyatlarni singdirish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, syujetli- rolli o‘yinlar va badiiy asarlar orqali bolalarda axloqiy sifatlar, ijtimoiy ko‘nikmalar va milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada pedagog va tarbiyachilarning innovatsion yondashuvlari ham muhim omil sifatida talqin etiladi.

Аннотация

В данной статье освещены педагогико-психологические основы формирования у детей национальных ценностей в системе дошкольного образования. В частности, будет освещено воспитательное значение сюжетно-ролевых игр и использования народных сказок. Рассматриваются

способы усвоения национальных ценностей с учетом возрастных и индивидуально-психологических особенностей детей. Также через сюжетно - ролевые игры и художественные произведения раскрываются возможности развития у детей нравственных качеств, социальных навыков, национального самосознания. В статье инновационные подходы педагогов и воспитателей также трактуются как важный фактор.

Abstract

This article covers the pedagogical and psychological foundations of the formation of national values in children in the preschool education system. In particular, plot-role-playing games and the educational significance of the use of folk tales are highlighted. Methods for the absorption of national values are considered, taking into account the age and individual psychological characteristics of children. Also, through plot-role-playing games and works of art, the possibilities of developing moral qualities, social skills and national self-awareness in children are revealed. The article also interprets the innovative approaches of educators and educators as an important factor.

Kalit so’zlar: Maktabgacha ta’lim, milliy qadriyatlar, syujetli-rolli o‘yinlar, ertaklar, pedagogik usullar, psixologik yondashuv, tarbiya.

Ключевые слова: Дошкольное воспитание, национальные ценности, сюжетно-ролевые игры, сказки, педагогические методы, психологический подход, воспитание.

Keywords: Preschool education, national values, plot-role-playing games, fairy tales, pedagogical methods, psychological approach, upbringing.

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada Shavkat Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlaydi: “Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash — barchamizning asosiy vazifamizdir.” Maktabgacha ta’lim bosqichi esa ushbu jarayonning eng muhim davri bo‘lib, aynan shu davrda bolalarda milliy o‘zlik, qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy xulq-atvor shakllanadi. Shu bois, bolalarga milliy qadriyatlarni singdirishda samarali pedagogik va psixologik usullardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga doir ayrim islohotlari:

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida «Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» qaror qabul qilindi.

2019-yilda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan bo'lib, u maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishni nazarda tutadi.

2023-yil 11-sentyabrda «O'zbekiston — 2030» strategiyasi tasdiqlangan bo'lib, uning takomillashtirilgan loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan.

Maktabgacha yosh davri shaxs shakllanishining, komil inson bo’lib voyaga yetishining, vatanparvar bo’lib rivojlanishining tamal toshi qo’yiladigan davr hisoblanadi. Bu davrda bolalarning hayoti davomida o’zlashtirishi kerak bo’lgan 80% bilim, ko’nikmalarni egallashga erishib bo’ladi. Xalqimiz tomonidan ”Bolalar bizning kelajagimiz” degan naql bekorga aytilmagan. Kelajagimiz biz

tarbiyalayotgan, voyaga yetkazayotgan bolalar qo’lidaligini yodimizdan ko’tarmasligimiz zarur. Shu narsani yodimizdan chiqarmagan holda mas’uliyatli bo’lib, ularga to’g’ri ta’lim-tarbiya berishimiz lozim. Ularga milliy qadriyarlarni singdirishda, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida rivojlantirishda, albatta, o’yinlarga murojaat qilamiz. O‘yin — maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat bo‘lib, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. O‘yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy tajribani egallaydi, nutqi, tafakkuri va tasavvuri rivojlanadi.

Maktabgacha ta’limning “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida bolalarning ijodiy rivojlanish sohasi doirasida syujetli-rolli o‘yinlar muhim faoliyat turi sifatida belgilangan bo‘lib, ushbu o‘yinlar orqali bolalarda ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me’yorlar hamda milliy qadriyatlarni shakllantirish imkoniyati yaratilishi ta’kidlanadi. Dasturda bolalarning o‘yin jarayonida kattalar hayotini aks ettirishi, milliy an’ana va urf-odatlarga xos xulq-atvorni o‘zlashtirishi hamda o‘zaro muloqot madaniyatini rivojlantirishi muhim pedagogik vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Ayniqsa, syujetli-rolli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining yetakchi turi hisoblanadi. Ushbu o‘yinlar orqali bola kattalar hayotini modellashtiradi, ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi va muomala madaniyatini rivojlantiradi. Masalan, “Oila” o’yinini misol qiladigan bo’lsak, bunda bolalar oilasidagi bo’layotgan voqea-hodisalarni gavdalantirib berishadi. Bobo- buvi, ota-ona, nabira rolini ijro etadigan bo’lishsa, nabiralarini yonlariga chaqirishadida birgalikda daraxtlar ekishadi, uni sug’orishadi, gullarni parvarish qilishadi, dasturxonda birgalikda ovqatlanish odobi va milliy qadriyatlarimizni o’yin orqali gavdalantirib berishadi. Bunda dasturxon odobi, kattalarga hurmatda bo’lish, ertalab barchaga salom berish, mehribonlik ko’rsatish, ularga yordam berish kabi milliy qadriyatlarimiz yanada yodlariga tushadi, boshqa bolalarga ham o’rnak bo’ladi.

“Mehmon kutish” o‘yini milliy qadriyatlarni shakllantirishda juda muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Bu o‘yin orqali bolalar nafaqat hordiq chiqaradi, balki o‘zbek xalqining azaliy urf-odatlari va axloqiy me’yorlarini ham o‘rganadi.Birinchidan, bu o‘yin bolalarda mehmondo‘stlik fazilatini shakllantiradi. O‘zbek xalqida mehmonni hurmat bilan kutib olish, uni izzat-ikrom qilish muhim qadriyatlardan biri hisoblanadi. O‘yin davomida bolalar mehmonni qanday kutish, joy berish, salomlashish kabi odatlarni amalda bajarib ko‘rishadi.Ikkinchidan, odob-axloq qoidalari mustahkamlanadi. Masalan, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, muloyim gapirish, xizmat qilish kabi xatti-harakatlar o‘yinda tabiiy ravishda namoyon bo‘ladi.Uchinchidan, bu o‘yin milliy an’analar va urf-odatlarni o‘rgatadi. Dasturxon yozish, choy quyish, mehmonni kuzatish kabi jarayonlar orqali bolalar kundalik hayotdagi milliy marosimlarni o‘zlashtiradi. To‘rtinchidan, ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi. Bolalar o‘zaro muloqot qilishni, rollarga kirishni (mezbon, mehmon), hamkorlikda harakat qilishni o‘rganadi. Xulosa qilib aytganda, “Mehmon kutish” o‘yini bolalarda mehmondo‘stlik, hurmat, odob va milliy o‘zlikni anglash kabi qadriyatlarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi, unda bolalar mehmon kutish odobi, mezbonlik kabi fazilatlar shakllanadi.

Syujetli-rolli o’yinlardan “Do‘kon” o‘yini oddiy ko‘ngilochar faoliyat emas, balki ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishga xizmat qiladi. Quyidagi jihatlarda uning ahamiyati katta:

Muomala madaniyatini shakllantiradi. Bolalar o‘yin davomida “Assalomu alaykum”, “Rahmat”, “Marhamat” kabi milliy muomala iboralarini ishlatadi. Bu esa o‘zbek xalqiga xos hurmat, odob va xushmuomalalikni singdiradi.

Halollik va adolat tushunchasini o‘rgatadi. Sotuvchi rolidagi bola to‘g‘ri narx aytish, aldamaslik, xaridorga halol xizmat qilishni o‘rganadi. Bu esa milliy qadriyatlarimizdagi halollik prinsipini mustahkamlaydi.

Mehnatga hurmatni rivojlantiradi. Do‘kon o‘yini orqali bolalar savdo-sotiq ham mehnat ekanini anglaydi. Bu ularda har qanday kasbga hurmat bilan qarashni shakllantiradi.

Milliy an’analarni aks ettiradi. O‘yinda milliy mahsulotlar (non, meva, sabzavot, milliy taomlar) ishlatilsa, bolalar o‘z milliy boyliklarini yaxshiroq tanib boradi va qadrlaydi.

Ijtimoiy rollarni tushunishga yordam beradi. Bolalar sotuvchi, xaridor kabi rollarni bajarib, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi. Bu esa ularni kelajak hayotga tayyorlaydi.

Tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya beradi. Pulni to‘g‘ri ishlatish, ortiqcha sarf qilmaslik, savdolashish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bu ham milliy tarbiyaning muhim qismi hisoblanadi.

Umuman olganda, “Do‘kon” o‘yini bolalarda milliy qadriyatlar — odob-axloq, halollik, mehnatsevarlik, hurmat va tejamkorlik kabi fazilatlarni tabiiy va qiziqarli tarzda shakllantiradi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik faoliyatni talab etadi. Ayniqsa, syujetli-rolli o‘yinlar va xalq ertaklari bu borada eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan o‘yin faoliyati orqali bola atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy hayotni o‘zlashtiradi hamda milliy urf-odat va an’analarni tabiiy ravishda qabul qiladi.

Mazkur maqolada ko‘rib chiqilganidek, “Oila”, “Mehmon kutish”, “Do‘kon” kabi o‘yinlar bolalarda nafaqat ijtimoiy ko‘nikmalarni, balki milliy qadriyatlarga xos bo‘lgan hurmat, mehmondo‘stlik, halollik, mehr-oqibat va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda pedagog va tarbiyachilarning roli alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘yinlarni to‘g‘ri tashkil

etish, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish hamda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishlari zarur.

Shuningdek, xalq ertaklari orqali bolalarda yaxshilik va yomonlikni farqlash, ijobiy qahramonlarga taqlid qilish, milliy o‘zlikni anglash kabi muhim sifatlar rivojlanadi. Bu esa ularning kelajakda barkamol, ma’naviy yetuk va vatanparvar shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.Demak, maktabgacha ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni singdirish jarayoni o‘yin va badiiy asarlar bilan uyg‘unlashgan holda olib borilganda yanada samarali natijalarga erishish mumkin. Shu bois, ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish hamda amaliyotga keng joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

2. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019. – 320 b.

3. Toshpo‘latova M., Nishonova Z. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018. – 256 b.

4. Hasanboyeva O.U. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2020. – 280 b.

5. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2017. – 300b.

6. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim va tarbiya nazariyasi. – Toshkent: “Fan”, 2016. – 240 b.

7. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: “Sharq”, 2019. – 312 b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018. – 120 b.